

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI
TASHKIL ETISH

ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL PROCESSES IN PRESCHOOL
EDUCATION

ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ДОШКОЛЬНОМ
ОБРАЗОВАНИИ

Nurullayeva Mohidil

Zafarabod tuman, 3-DMMT

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etishning mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, mazmun, tizim, maktabgacha, yosh, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии детей дошкольного возраста, содержании организации педагогических процессов в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: педагогический процесс, содержание, система, дошкольное учреждение, возраст, развитие.

Annotation: This article provides information on the development of preschool children, the content of the organization of pedagogical processes in the system of preschool education.

Keywords: pedagogical process, content, system, preschool, age, development.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi.

Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi-bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qoyilgan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayon haqida bir qancha olimlar tushuncha berganlar. Jumladan, Pedagogik jarayon asosiy tushuncha sifatida A.P.Usovaning "Obuchenie v detskom sadu" hamda N.B.Mchedlidze asarlarida ko'rib chiqilgan. A. P. Usova maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish muammasini ishlab chiqar ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlarini tilga oladi. Ular o'yin, mehnat va o'quv faoliyatidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayonda o'yinning o'rini ta'riflar ekan, N. B. Mchedlidze o'zining "Mesto igrы v pedagogicheskom protsesse detskom sadu" nomli kitobida shunday deydi: "Pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlantiruvchi xodisadir" uning rivojlanishi jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o'qitish, bolalarning uyushtirilgan va mustaqil faoliyatilari, ayrim faoliyat turalri (o'yin, o'quv, mehnat) o'rtasidagi nisbat o'zgaradi. Pedagogik jarayonda tadqiqotchi maqsad va mazmunini, vosita va metodlarini, pedagog va bolalarning o'zaro aloqasini, natijani ajratib ko'rsatadi. Pedagogik jarayonning xususiyati uning mazmuni, tuzilish va shakllari rivojlanishdagi o'zgaruvchanlikdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayon maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish, ularni jismoniy, aqliy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishiga yo'llangan. Qolaversa bolani o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak odob – axloqli, milliy ma'naviy va madaniy tarbiyalangan, yurt tinchligi va kelajak

uchun hizmat qiladigan inson qilib tarbiyalashga qaratiladi. Bu vazifani pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining turli-o'yin, turmush, mehnat, o'quv faoliyatlari orqali ta'minlanadi. Ular maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsini shakllantiruvchi vositasi hizmatini o'taydi va bolalar egallaydigan mazmun hisoblanadi. Pedagogik jarayonning tashkil etilishi ilk maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun xos bo'lgan umumiy rivojlanishining yuqori sur'atlarini hisobga olishi kerak. U har bir yosh guruhidagi rivojlanishni shuningdek, butun bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonni o'zgartiruvchanligini ham belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Ya'ni bunda bolalarining asosiy faoliyatilari o'yin, mehnat, sayr, navbatchilik, mashg'ulot nazarda tutilgishi kerak. Bolalarni faoliyatida uyushtirishning umumiy va yakka shakllari o'zgaruvchanligi va xilma-xil birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayonni bir butun sifatida va har bir yosh guruhida rejalashtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Pedagogik jarayonni rejalashtirishning maqsadi-"Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy dasturi"ning bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Adabiyotlar royxati:

- 1.Mirziyoyevning SH.M. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.:2016y. 29-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini
3. Usmanova Maxfuza. Bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. *Мaktabгacha таълим журнали*, 3(Preschool education journal). (2021). Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3973>
4. Usmanova Maxfuza. OILADA BOLANING KUN TARTIBINI TO'G'RI TASHKIL QILISH. *Мaktabгacha таълим журнали*, 1(1). (2021). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2712>
5. Usmanova Maxfuza 5-6 YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA OILAVIY MAROSIMLARNING O'RNI. *Мaktabгacha таълим журнали*(2021), 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3873>
- 6.Usmonova M. [Kichik maktab yoshdagi bolaning motivatsiya sohasi rivojlanishi: Kichik Maktab Yoshdagi Bolaning Motivatsiya Sohasi Rivojlanishi,- Журнал дошкольного образования, 2021](#)

7.Usmanova, M. (2020). 6-7-YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY MASHG`ULOTLARNING O`RNI. *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/147>